

MTB

10.05.2022-yil 22110012075835 lotga asosan

PUDRAT SHARTNOMASI

2022-yil 10- may

05-son

Urgut t.

Urgut tuman MTB (keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladi) nomidan J.Zoitov nizom asosida harakat qiluvchi bir tomondan va “AZIZA-QURUVCHI MXD” (keyingi o‘rinlarda “Pudratchi” deb yuritiladi) nomidan nizom asosida harakat qiluvchi M.Uziboyev ikkinchi tomondan, quyidagilar to‘g‘risida mazkur shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Pudratchi o‘z tavakkalchiligiga asoslangan va o‘zining hamda Buyurtmachining materiallaridan foydalangan holda Buyurtmachining topshirig‘iga asosan quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini: Urgut tuman MTB tassarufidagi 13-DMTT binosini issiqlik tizimini joriy ta‘mirlash, Buyurtmachi esa ushbu bajarilgan ishlarni qabul qilish va haqini to‘lash majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Shartnoma bahosi **148 498 642** (Bir yuz qirq sakkiz million to‘rt yuz to‘qson sakkiz ming olti yuz qirq ikki) so‘mni tashkil etadi.

2.2. Shartnoma bahosi o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

Urgut tuman MTB tassarufidagi 13-DMTT binosini issiqlik tizimini joriy ta‘mirlash

2.3. Shartnomaning 2.1- bandida ko‘rsatilgan baho dastlabki bo‘lib, so‘nggi baho Pudratchi taqdim etgan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Shartnoma bahosi inflyasiya natijasida taraflarning kelishuviga muvofiq o‘zgartirilishi mumkin. Shartnoma bahosining oshishi bilan bog‘liq xarajatlar Buyurtmachi tomonidan ushbu shartnomaning 3-bandida belgilangan tartibda qoplanadi.

3. TO‘LOV SHARTLARI

3.1. Ushbu shartnoma bo‘yicha to‘lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Shartnoma imzolangandan so‘ng oldindan 30% to‘lov ko‘chiriladi. Ish xizmat bajarilgandan so‘ng bajarilgan ishlar dalolatnomasiga asosan 70% to‘lov ko‘chiriladi

3.2. To‘lov shakli: pul o‘tkazish orqali.

3.3. Shartnoma bo‘yicha so‘nggi hisob-kitob ishlar bajarilgandan so‘ng, qabul qilish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hisobga olingan holda, 10 kundan kechiktirmay Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.



4. MAJBURIYATLARNI BAJARISH MUDDATLAR

4.1. Pudratchi ushbu shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarning kalendar rejasida belgilangan muddatlarda bajaradi (1-ilova).

4.2. Buyurtmachi quyidagi muddatlarda Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'laydi: Shartnoma imzolanganidan so'ng oldindan 30% to'lov ko'chiriladi. Ish xizmat bajarilgandan so'ng bajarilgan ishlar dalolatnomasiga asosan 70% to'lov ko'chiriladi.

4.3. Shartnomaning amal qilish muddati:

Boshlanishi – 2022-yil 10-may: Tugashi – 2022 yil 31-dekabr

5. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

5.1. Pudratchining majburiyatlari:

o'z kuchi va mablag'lari hisobidan ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatlarda barcha ishlarni bajarish va Buyurtmachiga loyiha hujjatlariga mos keladigan holatda ishlarni topshirish;

loyihaga muvofiq zaruriy materiallarni, qurilmalar, butlovchi ashyolarni qurilish maydonchasiga yetkazib kelish va ularni qabul qilishni, tushirib olishni, omborga joylashni hamda qurilish davomida ularni saqlashni amalga oshirish;

o'z kuchi va vositalari bilan materiallar, qurilmalar, ashyolarni joylashtirish va ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha muvaqqat binolarni qurish;

ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun jalb qilinayotgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan yordamchi pudrat shartnomalari tuzilganligi haqida Buyurtmachini xabardor qilish va yordamchi pudratchilar tomonidan ishlarning bajarilishini nazorat qilish;

qurilish maydonchasida texnika va yong'in xavfsizligi hamda qurilish maydonchasining qo'riqlanishi bo'yicha zaruriy tadbirlarning bajarilishini ta'minlash;

qurilish obyektlarining sug'urta qilinishini ta'minlash;

qurilishi tugallangan obyektlarni qabul qilish

dalolatnomasi imzolanganidan keyin 10-kunlik muddatda

qurilish maydonchasidan o'ziga tegishli mol-mulkni olib ketish.

5.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatda Pudratchiga qurilish maydonchasini topshirish;

shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni bajarganlik uchun Pudratchiga haq to'lash;

Pudratchining yozma xabarnomasini olgan sanadan boshlab 2 hafta ichida obyektни qabul qilib olish.

6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Taraflar shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddatlarini buzgan taqdirda, aybdor taraf ikkinchi tarafga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma bahosining foizi miqdorida neustoyka to'laydi.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha boshqa majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga zararni va boy berilgan foydani qoplaydi.

6.3. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar tugallangandan so'ng o'ziga tegishli materiallarni qurilish maydonchasidan olib ketmasa, Buyurtmachi qurilish maydonchasi bo'shatib berilgan sanaga qadar Pudratchiga bajarilgan ishlar uchun haq to'lashni to'xtatib turishga haqli.

6.4. Neustoykani to'lash taraflarni majburiyatlarini bajarish yoki kamchiliklarni bartaraf etishdan ozod etmaydi.

7. FORS-MAJOR

7.1. Fors-major natijasida majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari kelib chiqsa va bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 15-fevralidagi 63-sonli "Yengib bo'lmaz kuch (fors-major) holatlarining mavjudligini tasdiqlash mexanizmini kiritish to'g'risida"gi qarorida ko'zda tutilgan shartlarda tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarilishidan ozod etiladi.

8. BOSHQA SHARTLAR

8.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

9. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

9.1. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar taraflar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

9.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizolarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyliги yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi. iqtisodiy sudning qarori taraflar uchun qat'iy va majburiy hisoblanadi.

10. YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

“Pudratchi”

“AZIZA-QURUVCHI MXD”

Manzil: Samarqand shahri

INN: 206214507

OKONX: 61110

X/R: 20208000904475768001

Bank: ATB Qishloq Qurulish Bank Sam
fil

MFO: 00287

Rahbar:  M. Uziboyev

M.O‘. (imzo)



“Buyurtmachi”

Urgut tuman maktabgacha ta’lim
bo‘limi

Manzil: Urgut tuman Navoiy shoh
ko‘chasi

INN: 207266806 OKONX: 92400

X/R: 100022860182367091100251001

23402000300100001010

Toshkent sh. Markaziy Bankining
Toshkent sh. XKKM

MFO: 00014 INN: 201122919

Rahbar: J. Zoitov

M.O‘. (imzo)

105

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RSIDA
HUQUQIY XULOSA**

№

1. Loyihaning turi: Shartnoma.

2. Loyihaning nomi: Pudrat shartnomasi.

1.1 Urgut tuman MTB (keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan J.Zoitov nizom asosida harakat qiluvchi bir tomondan va "AZIZA-
QURUVCHI MXD" (keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladi) nomidan nizom
asosida harakat qiluvchi M.Uziboyevlar tomonidan mazkur shartnoma tuzildi.

1.2. Shartnomaning umumiy summasi **148 498 642** (Bir yuz qirq sakkiz million
to'rt yuz to'qson sakkiz ming olti yuz qirq ikki) so'mni tashkil qiladi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Urgut tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 2022-yil 10-may kuni
MP52541810-son hujjat raqami bilan ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

XULOSA

Loyiha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston
Respublikasining "**Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-
huquqiy bazasi to'g'risida**" 1998-yil-29 avgustdagi 670-I-son qonuni hamda
amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan, uni qabul qilish
maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



O. Yoqubov

2022-yil 11-may